

YUQORI DARAJALI STRATEGIK SHERIKLAR: O'ZBEKISTON VA GERMANIYA MUNOSABATLARINING AHAMIYATI, TARIXI, RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI USTUVOR YO'NALISHLAR

Po'latxo'jayev Ziyodulla Sa'dullayevich

Ilmiy rahbar: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (Phd), Favqulodda va muxtor elchi

Yusupboyev Elbek San'atovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xaqlaro munosabatlar fakulteti 1-kurs talabasi.

Email: yusupboyevelbek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston va Germaniya davlatlari o'rtasidagi diplomatik munosabatlar, munosabatlarning tarixi, rivojlanishi, ildizlar qanchalik mustahkam ekanligi va kelajakda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning yanada rivojlanishi uchun odim tashlangan sohalar to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikas, Markaziy Osiyo, Yevropa ittifoqi, Iqtisodiy hamkorlik, Diplomatik munosabatlar, Tarixiy aloqalari, Mennonit nemislari, Yashil iqtisodiyot, Madaniy aloqalar, Strategik sheriklik.

Abstract: This article explores the diplomatic relations between Uzbekistan and Germany, examining the history and development of these ties, the strength of their historical roots, and the priority sectors identified for the future advancement of bilateral cooperation.

Key words: Republic of Uzbekistan, Federal Republic of Germany, Central Asia, European Union, Economic partnership, Diplomatic Relations, Historical ties, Mennonite Germans, Green Economy, Cultural Relations, Strategic Partnership.

Zusammenfassung: In diesem Artikel werden die diplomatischen Beziehungen zwischen Usbekistan und Deutschland, die Geschichte und Entwicklung dieser Beziehungen sowie die Beständigkeit ihrer Grundlagen untersucht. Darüber hinaus werden die Bereiche beleuchtet, in denen Schritte zur weiteren Entwicklung der künftigen Zusammenarbeit zwischen den beiden Ländern unternommen wurden.

Schlüsselwörter: Republik Usbekistan, Bundesrepublik Deutschland, Zentralasien, Europäische Union, Wirtschaftliche Zusammenarbeit, Diplomatische Beziehungen, Historische Verbindungen, Mennonitische Deutsche, Grüne Wirtschaft, Kulturelle Beziehungen, Strategische Partnerschaft.

Özet: Bu makalede, Özbekistan ve Almanya arasındaki diplomatik ilişkiler, bu ilişkilerin tarihi ve gelişimi, tarihsel köklerinin derinliği ve gelecekte iki ülke arasındaki münasebetlerin daha da geliştirilmesi amacıyla adım atılan öncelikli alanlar ele alınmaktadır.



Anahtar Kelimeler: *Özbekistan Cumhuriyeti, Almanya Federal Cumhuriyeti, Orta Asya, Avrupa Birliği, Ekonomik İşbirliği, Diplomatik İlişkiler, Tarihsel Bağlar, Mennonit Almanları, Yeşil Ekonomi, Kültürel İlişkiler, Stratejik Ortaklık.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются дипломатические отношения между Узбекистаном и Германией, история и развитие этих отношений, прочность их исторических корней, а также сферы, в которых предприняты шаги для дальнейшего расширения сотрудничества между двумя государствами в будущем.*

Ключевые слова: *Республика Узбекистан, Федеративная Республика Германия, Центральная Азия, Европейский союз, Экономическое сотрудничество, Дипломатические отношения, Исторические связи, Немцы-мennonиты, Зеленая экономика, Культурные связи, Стратегическое партнерство.*

O'zbekiston Respublikasi – Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan davlatdir. Germaniya Federativ Respublikasi – G'arbiy Yevropada joylashgan bo'lib, Yevropa integratsiyasida G'arbiy hamda Sharqiy Yevropani o'zaro bog'lovchi kalit vazifasini ham bajarib keladi. Xo'sh, bunday bir-biridan uzoqda joylashgan ikki davlat qanday qilib bir-biri uchun ishonchli sheriklarga aylana olishdi? Dastavval ikki davlat o'rtasidagi diplomatik munosabatlar qachon o'rnatilgani ko'rib chiqamiz. O'zbekiston 1991-yil 31-avgust kuni Sobiq Sovet Sotsialistik Respubliklari Ittifoqi davlatidan ajralib chiqib, o'z mustaqilligini e'lon qildi. Germaniya O'zbekiston Respublikasini birinchilardan tan olgan davlatlardan biri hisoblanadi. Germaniya 1991-yil 31-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat ekanini tan olgan. Ikki davlat o'rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yil 6-mart sanasida o'rnatilgan. Davlatlar diplomatik arenada munosabatlar o'rnatilganiga hali ko'p vaqt bo'lmasa-da, faol aloqalarni boshlab yuborishdi. Delegatsiya tashriflari yo'lga qo'yildi, ikki davlat o'rtasidagi yuqori martabadagi delegatsiyalar tashriflarini 1992-yil avgust oyida Germaniya Federal iqtisodiy hamkorlik vazirining O'zbekistonga tashrifi boshlab berdi va bu tashrif ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston tarafdin birinchi tashrifni 1993-yil 28-aprelda Islom Karimov boshchiligidagi delegatsiya amalga oshirgan. Tashrif yakunida imzolangan “Kapital qo'yilmalarni amalga oshirishga ko'maklashish va ularni o'zaro himoyalash to'g'risida”gi shartnoma, “Ilmiy tadqiqot va mutaxassislar jamg'armasini vujudga keltirish” hamda “Madaniy hamkorlik” to'g'risidagi bitimlar ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Ushbu tashrifdan bir necha oy o'tib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Germaniya Federativ Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Elchixonasini ochish to'g'risida”gi 364-sonli qarori qabul qilindi va 1993-yil 19-iyul kuni





O'zbekistonning Germaniyadagi Elchixonasi Germaniyaning o'sha paytdagi boshkenti (poytaxti) Bonn shahrida rasman ochildi. Germaniyaning O'zbekistondagi Elchixonasi 1992-yil 6-mart sanasida ochilgan edi. O'zbekistonning Germaniyadagi elchixonasi Germaniyaning poytaxti Berlinga ko'chirilgandan keyin ham sobiq federal poytaxt bo'lmish Bonn shahrida 1992-2001-yillar o'z faoliyatini olib borgan. 2001-yil 3-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning rasmiy tashrifi vaqtida shaxsan prezidentning o'zi Berlindagi elchixona ochilish marosimida ishtirok etgan.

Germaniya – iqtisodiyoti keng miqyosda rivojlangan yirik davlat sifatida Yevropda birinchi va dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi. Germaniya Yevropa Ittifoqi uchun barcha sohalarda yaqin hamkorlikka asoslangan iqtisodiy integratsiyani harakatga keltiruvchi asosiy markaziy kuch hisoblanadi. Nemis iqtisodiyotining o'ziga xos muhim jihati – uning eksportga yo'naltirilganidir. Germaniya global eksport hajmi bo'yicha dunyoda uchinchi, Yevropa davlatlari orasida birinchi o'rinni egallaydi. Davlat tomonidan eksport qilinadigan mahsulotlar “Made in Germany” markasi ostida butun dunyoda mashhurdir. Bu yozuv jahonda yuqori sifat beligisi sifatida qabul qilinib, innovatsiya va texnologik ustunlik ramziga aylangan. Germaniya ulkan ishlab chiqarish salohiyatiga ega, daromad darajasi yuqori, ijtimoiy xizmatlar sohasi rivojlangan davlatdir. Shuningdek, Germaniya turmush darajasi, sog'liqni saqlash, ta'lim va yana bir qator boshqa mezonlarni o'z ichiga olgan inson rivojlanishi indeksi bo'yicha dunyo reytingida yetakchi o'rinlarni egallaydi. “Germaniya – ixtirolar mamlakati” degan nom xalqaro miqyosda keng tarqalgan va bu nom Germaniyaning o'ziga xos tashrif qog'oziga aylangan. To'qsondan ortiq nemis ixtirochi-olimlarining Nobel mukofotiga sazovor bo'lgani bunga misol bo'la oladi. Germaniya jahon siyosatida ham katta ta'sirga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi, BMT, NATO, “Katta yettilik” va “Katta yigirmatalik” apparatlarida asoschi-davlatlardan va faol a'zolardan biri hisoblanadi. Bunday jahon arenasida katta ta'sirga ega bo'lgan davlat uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida Germaniya Qozog'iston Respublikasi bilan birgalikda muhim hamkorlar sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov Germaniyaga 1993-yil Germaniyaga birinchi tashrif, 1995-yil Davlat tashrifi va 2001-yillarda rasmiy tashrifni amalga oshirgan. 1995-yil O'zbekistonga Federal Prezident Roman Hersog davlat tashrifi, 2002-yil Federal Kansler Gerxard Shryoder rasmiy tashrif bilan O'zbekistonni ziyorat qilishgan. Germaniya Federativ Respublikasi prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer 2016-yilning mart oyida Federal tashqi ishlar vaziri sifatida Germaniyaning Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga (YXHT) raisligi doirasida O'zbekistonga tashrif buyuradi.

O'zbekiston-Germaniya munosabatlari 2017-yilda Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning prezidentlik davri boshlanishi bilan yanada yuqori darajaga ko'tarildi. 2019-yil 20-yanvar sanasida Shavkat Mirziyoyev Germaniyaga Federal kansler Angela



Merkelning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan safar uyushtirdi. 2019-yil 21-yanvar kuni Berlin shahridagi Bellevue saroyida O'zbekiston Respublikasi yurtboshisi Shavkat Mirziyoyevni Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer tomonidan rasmiy kutib olish marosimi bo'lib o'tdi. Muzokaralar avvalida Shavkat Mirziyoyev Frank-Valter Shtaynmayerni Germaniya Federativ Respublikasi tashkil topganining 70 yilligi bilan samimiy qutladi. Mazkur uchrashuv davomida O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi siyosiy muloqotni yanada mustahkamlash, o'zaro manfaatli sohalarda sheriklikni rivojlantirish masalalari kun tartibida bo'ldi. O'zbekiston rahbari ushbu uchrashuvda "Markaziy Osiyo + Germaniya" formatida muloqot yo'lga qo'yish taklifini ilgari surdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu uchrashuvda Germaniyani ishonchli hamkor sifatida aytib o'tadi: "Germaniya O'zbekistonning ishonchli va istiqbolli sherigidir. Biz o'zaro hamkorlikni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga, unga haqiqiy sheriklik xususiyatini baxsh etishga tayyormiz". Ushbu so'zlarga javoban Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer ham bu ta'riflarga munosib javob qaytaradi: "Germaniya O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarni, ayniqsa, uning mintaqa davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilikni rivojlantirishga qaratilgan siyosatini to'liq qo'llab-quvvatlaydi". Ushbu gaplardan ikki davlat bir-biri uchun yuqori darajada ishonchli sheriklar ekanini yana bir bor anglashimiz mumkin. Ma'lumki, Germaniya sanoatning har bir sohasida nafaqat Yevropa, balki butun dunyo miqyosida yetakchilardan hisoblanadi hamda Germaniyaning brendlari O'zbekiston bozoriga qiziqishi ham yuqori. O'zbekistonda, ayniqsa Toshkentda bundan bir qancha yillar avval Germaniyaning "Mercedec-Benz" brendiga tegishli "Mercedes-Benz Conecto" rusumidagi avtobuslar jamoat transporti vazifasini o'tar edi. O'zbekiston avtobuslarini Germaniyadan oldirgan kam sonli davlatlardan hisoblanadi. Ushbu avtobuslarning bir qismidan hozirgi kunda ham jamoat transporti sifatida foydalanishadi. Germaniya bilan O'zbekiston madaniy hamkorligida Gyote Instituti ahamiyatli sanaladi. Ushbu dargoh orqali O'zbekistondagi nemislar bir yerga yig'ilishadi va nemis tili hamda madaniyatini o'rganmoqchi bo'lganlar ham Gyote Institutida ta'lim olishadi. Germaniya bilan hamkorlik borasida yana bir jihatni alohida ta'kidlash joiz, O'zbekiston-Germaniya hamkorlikda "Man" rusumida avtobus hamda yuk mashinalarini ishlab chiqarishadi va "Man" brendi ostidagi transportlar ham O'zbekistonda mashhur hisoblanadi.

O'zbekiston-Germaniya munosabatlari har bir sohada yanada chuqurlashmoqda, Germaniya Markaziy Osiyo mintaqasi uchun o'zini ishonchli sherik va investor sifatida hamkorlikka tayyor ekanini ta'kidlab o'tyapti. 2026-yil 12-fevral sanasida Berlinda "Markaziy Osiyo – Germaniya" formatidagi ilk vazirlar darajasidagi uchrashuv o'tkazildi. Ushbu mexanizm ishga tushirilishini hamkorlikka yanada tizimli va amaliy tus beradigan muhim bosqich sifatida baholash mumkin. Bugungi kunda Markaziy Osiyo Yevrosiyaning





yuragida joylashgan, o'z birligini, iqtisodiy salohiyatini va global rolini izchil mustahkamlab borayotgan dinamik mintaqadir. Uchrashuv davomida investitsiya, texnologiya va savdo sohalaridagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish, muhim xomashyolar, "yashil" energetika, iqlim, transport bog'liqligi va logistika yo'nalishlarida hamkorlikni kengaytirish hamda ishbilarmonlik muloqotini chuqurlashtirish zarurligi ta'kidlandi. Mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikda juda istiqbolli rivojlanish dinamikasi kuzatilmoqda. So'nggi yillarda tovar ayirboshlash hajmi ikki barobarga ortdi, qo'shma investitsiya portfeli 10 milliard dollardan oshdi va "yashil" energetika, sanoat, muhim xomashyolar va ishchi kuchining harakatchanligi sohasida hamkorlik yanada kengaymoqda.

Davlatlar o'rtasida savdo va investitsiyaviy sheriklikni faollashtirish hamda kelgusida ikki tomonlama biznes tadbirlari oldidan aniq loyihalarni ishlab chiqishga kelishib olindi. Germaniyaning mintaqaga nisbatan Yevropa Ittifoqi siyosatini shakllantirishdagi roli muhim ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa Markaziy Osiyo bo'yicha YI Strategiyasi kabi tashabbuslar orqali bu yaqqol ko'rinadi. Ikki tomonlama munosabatlar izchil rivojlanib bormoqda va mashinasozlik, energetika hamda ta'lim kabi sohalarda aniq hamkorlik rejalari mavjud.

O'zbekiston-Germaniya aloqalari tarixi XIV asrdan boshlanadi. Amir Temur 1402-yil Anqara jangida Usmonli turklar sultoni Yildirim Boyazidni mag'lub etgan vaqtda asir olingan, keyinchalik harbiy mahorati ila Amir Temurning e'tiborini qozongan Yohann Shiltberger uzoq vaqt davomida avval Sohibqiron, so'ngra temuriylar xizmatida bo'lgan. 33 yil temuriylar xizmatida bo'lgandan so'ng o'z vataniga qaytgach, Shiltberger "Yevropa, Osiyo va Afrikaga 1394-yildan 1427-yilgacha sayohat" nomli noyob tarixiy kitob yozadi. Ushbu asar hozirgi kunda Myunxen markaziy kutubxonasi va Toshkent shahridagi Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxonada saqlanmoqda. Undan tashqari, Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxonada XV asrda chop etilgan To'qqizinchi nemis Biblyasi ham saqlanadi. 1724-yil nemis kompozitori Georg Hendel tomonidan "Amir Temur" ("Tamerlano") operasining yaratilishi va sahnalashtirishi ham aloqalarning uzoq tarixiy ahamiyat kasb etishidan dalolatdir. Birinchi etnik nemislar O'zbekiston hududida XVIII asrda kuzatilgan.

Ular Rossiyaning markaziy yerlari va Volga bo'yi hududlaridan qurg'oqchilik va ocharchilik tufayli bu yerlarga ko'chib kelishgan bo'ladi. XVIII-XIX asrlardagi Rossiyalik elchilarning ham ko'pchiligi etnik nemislardan bo'lgan. 1730-1740-yillarda poruchik Miller Toshkentga Orenburgdan yuborilgan birinchi karvonni boshqarib kelgan va Rossiya imperiyasining Turkistondagi birinchi vakili bo'lgan. Yohann Gotlib Georgi, Yakub Bouver, G.Honigberger, K.Ritter, A.Gumboldt kabi etnik nemis tadqiqotchilari O'rta Osiyoni o'rganib chiqishgan. 1870-yil Turkistonga Ieronim Krauze keladi.





O'lkada kinematografiyaning paydo bo'lishi uning nomi bilan bog'liq. Krauze kinematografiyadan tashqari, 1872-yil Toshkentda o'simlik yog'i ishlab chiqaradigan birinchi zavodga asos soladi. Bu zavodda yiliga 30 pud (1 pud – 16,4 kg) paxta yog'i ishlab chiqarilib, yog'ni eksport qilish yo'lga qo'yiladi. Turkistonda sanoat uslubida kolbasa ishlab chiqarish ham nemis bo'lmish A.Shott nomi bilan bog'liq bo'lib, 1875-yildan kolbasa ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ko'pgina nemislar neft (E.Myuller, K.Lerx, I.Krauze), toshko'mir (A.Middendorf), kumush va qo'rg'oshin (P.Foss), oltin (P.Shott), temir (A.Pander) va o'lkaning boshqa foydali qazilmalarini qazib olish va ishlab chiqarishda bosh-qosh bo'lishgan. Yana shuni ta'kidlamoq joizki, mennonit nemislarining ham o'lka taraqqiyotiga qo'shgan hissasi ulkan. Mennonitlar intizomga og'ishmasdan rioya etishgan, jamoa manfaati uchun zarur ishlarni beg'araz bajarishgan. Mennonitlar e'tiqodiga binoan qo'lga qurol olib, jang qilish mumkin emas, shu sababli mennonit nemislar harbiy xizmat o'tashmagan va davlat ishida ishlashmagan.

Nemis va holland mennonitlar XVIII asrda imperatorning rafiqasi Yekaterina II (uning millati ham nemis) taklifi bilan Rossiyaga ko'chib kelishadi. Aleksandr II (1855-1891) davrida esa ularni ham harbiy xizmatga jalb qilishga urinishlar bo'lgach, mennonitlar Markaziy Osiyo va Amerika tomon yo'l olishadi. 1880-yilda millati nemis bo'lgan Turkiston general-gubernatori Konstantin Petrovich fon Kaufman mennonit millatdoshlarini Toshkentga chaqiradi. Natijada ularning 71 oiladan iborat jamoasi ko'chib keladi. Turkistonda ham majburiy harbiy xizmat joriy etilgach, mennonitlar Samarqand yaqinidagi Zirabuloq qishlog'ida bir muddat qo'nim topadilar.

Buxoro amiri Amir Muzaffar boshida mennonitlarni o'z fuqaroligiga olishga rozi bo'ladi, so'ngra mennonitlar tilni bilmasligi hamda ayollarning yuzi ochiq bo'lishi (amirlik davrida mahalliy ayollar paranjida yurgan) sabablari tufayli fikrini o'zgartiradi. Shundan so'ng mennonitlar Xiva xonligidan yordam so'rashadi. Xiva xoni Said Muhammad Rahimxon II (Feruz) ularni qabul qilishga, yer ajratishga rozilik bildiradi. Mennonitlarga to'ng'iz boqmaslik sharti qo'yiladi va bu shart qabul qilinadi. 1882-yilda nemis va holland mennonitlar Xivadan 160 km uzoqlikdagi Ko'hna Urganch shahri yaqiniga ko'chib kelishadi. Kichik qo'rg'oncha barpo etishib, dehqonchilik bilan shug'ullana boshlashadi. Bu qo'rg'ondan atigi 5 km uzoqlikda yashaydigan yovmut turkmanlar qabilasi mennonitlarning jang qilishmasligini bilib olishadi va talonchilik hujumlari uyushtiradilar. Xon vakili Qosim Devon mennonitlardan xabar olgani keladi va ularning og'ir vaziyatga tushib qolganini ko'rib, darhol bu haqida poytaxtga ma'lum qiladi.

Shundan so'ng Feruz 1884-yil Xivadan 15 km uzoqlikdagi Oqmachit qishlog'ida (hozirgi Yangiariq tumani hududi) o'z og'asi Otajon to'ra mulkidan ularga yer ajratib beradi. Shuningdek, o'zga din vakillariga nisbatan zo'ravonlikni ta'qiqlaydi hamda ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish to'g'risida farmon imzolaydi. Xon mennonitlarni bir yilga





yer solig'idan, jamoat ishlaridan (ariqlarni qazish, uylarni ta'mirlash va hokazo) to'rt yilga ozod etadi. 1917 yilda Samarqand harbiy gubernatori bo'lmish Nil Sergeyevich Likoshin Oqmachitga tashrif uyushtirib, mennonitlar hayoti hamda faoliyati bilan yaqindan tanishgan. Ko'rgan-kechirganlari haqida «Turkestanskoye slovo» gazetasida «Xivadagi nemislar» nomli maqola chop ettirgan. Hozirgi vaqtda bu mennonitlar haqidagi noyob manba hisoblanadi. Likoshinning yozishicha mennonitlar Xivada xuddi bir oila kabi ahil va inoq yashab kelishgan. Ularning yigirma to'rt uydin iborat qo'rg'oni loy devor bilan o'ralgan va qapiga (darvoza) ega bo'lgan. Jamoani umumiy saylangan yetakchi – forshteyer boshqargan. Sho'rlangan tuproqda an'anaviy va noan'anaviy ekinlar – kartoshka, pomidor, baqlajon, karam va ziravorlar yetishtirishgan. Xivaliklar bir qancha o'zlari uchun yangi bo'lgan sabzavotlarni yetishtirishni o'rganib olishgan, lekin mennonit nemislarning asosiy kasbi duradgorlik, yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik bo'lgan. Ko'pchiligi xon saroyi usta sifatida ishga olingan. Xivadagi qurilishlar, xon saroyidagi yog'och bilan bog'liq ishlar mennonitlarga topshirilgan. Mennonit ayollar chipor paypoqlar va sotish uchun kiyimlar tikishgan. Mennonitlardan bo'lgan Vilhelm Penner (xalq ichida Panor bobo) xivalik Xudoybergan Devonovga fotografiyani o'rgatgan va unga o'z kamerasini sovg'a qilgan. Xudoybergan Devonov ushbu sohani o'rganib, birinchi o'zbek fotografi va kino operatori bo'lib yetishadi. Mennonitlar o'z maktablariga ega bo'lishgan va ta'lim nemis tilida bo'lgan. Adabiyotlar Germaniyadan maxsus buyurtma orqali keltirilgan. 2019-yilning ko'klamida Germaniya prezidenti Frank-Valter Shtaynmayyer rafiqasi bilan birga Xivaga tashrif buyurdi. U mennonitlar muzeyida ham bo'lib, millatdoshlari hayotiga oid tarixiy eksponatlar bilan tanishdi. “O'sha vaqtda o'zga din va hayot tarziga ega aholining ahil-inoq yashashi o'zbek va nemis xalqi ongida bugungi kunda ham ustun bo'lgan birodarlik va hamfikrlikning yaqqol misolidir”, - dedi u ta'sirlanib. Statistika nazar solsak, XIX asr oxirida o'lkada 3800 nafar nemis bo'lgan, 1920-yilda bu ko'rsatkich 8500 kishini tashkil etgan. Vaqtlar o'tib ko'plab nemislar o'z vatanlariga yo'l olishdi, hozirda esa O'zbekistonda 8000 nafar nemis millatiga mansub insonlar istiqomat qilishadi. Bu raqamlar O'zbekiston-Germaniya hamda ushbu ikki davlat aholisi o'rtasidagi munosabatlar do'stona ekanini isbotlaydi.

So'nggi yillarda O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga ko'tarildi. Ikki davlat ham siyosiy ishonch, iqtisodiy manfaat va strategik sheriklik tamoyillariga asoslangan uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirmoqda. Ayniqsa, 2025-yilda o'zaro savdo hajmining 1,4 milliard AQSh dollariga yetgani va investitsion faollikning oshgani kelajakdagi hamkorlik uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Germaniya bugungi kunda O'zbekistonning Yevropadagi eng muhim iqtisodiy hamkorlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.





Kelajakda ustuvor yo'nalishlarning birinchisi iqtisodiyot va sanoat sohalarida hamkorlikni kengaytirish hisoblanadi. Germaniya kapitali ishtirokidagi 225 dan ortiq korxona faoliyat yuritayotgani, investitsiyalar hajmi esa 1 milliard dollardan oshgani ikki tomonlama iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashayotganini ko'rsatadi. Tomonlar sanoat kooperatsiyasi, mashinasozlik, kimyo sanoati, farmatsevtika va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Yaqin yillarda savdo hajmini yanada oshirish va qo'shma korxonalar sonini ko'paytirish asosiy maqsadlardan biri bo'lib qoladi.

Ikkinchi muhim yo'nalish "yashil iqtisodiyot" va energetika sohasidagi hamkorlikdir. Germaniyaning ilg'or texnologiyalari asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik barqaror ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. 2025–2028 yillarga mo'ljallangan "yashil ko'nikmalar" dasturlari orqali kasb-hunar ta'limini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan. Bu esa nafaqat iqtisodiy, balki ekologik barqarorlikni ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'lim va ilm-fan sohasi ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Dual ta'lim tizimini joriy etish, qo'shma ilmiy klasterlar tashkil qilish hamda innovatsion loyihalarni ko'paytirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. Rejalarga ko'ra, yaqin yillarda kamida 10 dan ortiq qo'shma innovatsion loyiha amalga oshiriladi. Talabalar va mutaxassislar almashinuvi, IT va raqamli texnologiyalar bo'yicha hamkorlik esa kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, transport-logistika, sog'liqni saqlash va gumanitar aloqalar ham hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlaridan sanaladi. Markaziy Osiyoni Yevropa bilan bog'lovchi muhim transport yo'laklarini rivojlantirish ikki davlat manfaatlariga mos keladi. Madaniy almashinuvlar va yoshlar dasturlari esa o'zaro ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Umuman olganda, O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi hamkorlik kelgusi yillarda yanada kengayishi kutilmoqda. Savdo hajmining oshishi, investitsiyalar ko'payishi va yuqori texnologiyali loyihalarning amalga oshirilishi ikki tomonlama munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki barqaror va uzoq muddatli strategik sheriklikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi munosabatlar ko'p yillik samarali hamkorlik va ishonchli sheriklik ustiga qurilgan. Mehnatsevar o'zbek xalqi hamda intizomli nemis xalqi asrlar davomida birga yashab kelgan, bir biridan ko'plab narsalarni o'rganishgan va o'rgatishgan. Ikki xalq ham juda boy madaniyatga ega.

O'zbeklar va nemislar o'rtasidagi do'stlik rishtalari asrlar davomida sinovdan o'tgan va do'stlik rishtalari chuqurdir.





O'zbekiston va Germaniya davlatlari o'rtasidagi hamkorlik loyihalari ham o'z natijalarini berib kelmoqda, ikki davlat ham hamkorlikdan doimo mamnun va hamkorlikni doimiy kengaytirish tarafdori bo'lishi bejiz emas. Germaniyaning loyihalari hozirgi kunga qadar O'zbekistonda yaxshi natijalar keltirgan.

O'zbekiston va Germaniya o'rtasidagi hamkorlik hali yanada yuksak darajalarga chiqib, ikki davlat va ikki xalq uchun yuqori natijalar keltira oladi.

O'zbekiston-Germaniya munosabatlari barcha yo'nalishlarda kuchli ijobiy dinamika bilan rivojlanishda davom etadi va yaxshi aloqalar kelajakda ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklik yanada chuqurlashishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston-Germaniya: O'zaro manfaatli hamkorlikning yangi sahifasi" kitobi
2. <https://gov.uz/en/mfa>
3. <https://president.uz>
4. German Federal Foreign Office - Federal Foreign Office
5. <https://uza.uz/>
6. Xorazmni o'zgartirgan nemislar – Xiva xonligida yashagan mennonitlar hayoti va og'ir qismati
7. O'zbekiston va Germaniya yetakchilari tashqi siyosat idoralariga ikki tomonlama munosabatlar darajasini oshirish masalasini ko'rib chiqishni topshirdilar – O'zbekiston Respublikasining Frankfurt-Main shahridagi Bosh konsulxonasi
8. O'zbekiston Prezidenti va Germaniya Federal Prezidenti ikki tomonlama munosabatlar istiqbollarini muhokama qildilar

